ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4
2025

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

# ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 3, НОМЕР 4

# JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

ТОШКЕНТ-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№4 (2025) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4

**Бош муҳаррир: | Главный редактор: Chief Editor:**

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

**Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель главного редактора: | Deputy Chief Editor:**

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)**
**Axmedov Oybek Saporboyevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Galiyeva Margarita Rafaelovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Samandarova Lola Sultanovna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)**
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

**FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)**
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

**FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)**
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

**TARIX FANLARI**
**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**
Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**
Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti.
**Goncharov Yuriy Mixaylovich**
Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya
**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**
Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya
**Abdullayev Utkir Ismoilovich**
Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti
**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdullayev Timur Pulatovich**
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdalov Umidbek Matniyazovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM
**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**
Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti
**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

**PSIXOLOGIYA FANLARI**
**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Kryukova Tatyana Leonidovna**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya
**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

**IQTISODIYOT FANLARI**
**Ruzmetov Baxtiyar**
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Sherov Alisher Bakberganovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Voronsova Yuliya Vladimirovna**
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Moskva davlat boshqaruvi universiteti
**Jabborov Umarbek Rustambekovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Cho'ponov San'at Otanazarovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Niyazmetov Islambek Masharipovich**
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

**PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**
**Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Adilov Zafar Yunusovich**
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

**Slepko Yuriy Nikolayevich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Yaroslav davlat pedagogika universiteti
**Xazova Svetlana Abduraxmanovna**
Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma davlat universiteti Belorusiya
**Kalandarova Madina Baxadirovna**
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**TIBBIYOT FANLARI**
**Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Esamuratov Aybek Ibragimovich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Samandarova Barno Sultonovna**
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Tajiyeva Zebo Baxodirovna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Nazarova Maloxat Berdiboyevna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

**ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**
**Sultanov Samandar Maxmud o`g`li**
Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)
Ma'mun Universiteti NTM

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## FILOLOGIYA

**1. Искандарова Нодира Бахрамбековна**
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7

**2. Сапаева Хилола Бахромбековна**
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14

**3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi**
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18

**4. Pulat Fozilov**
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARINING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23

**5. Masharipov Jakhongir Axmedovich**
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

## IQTISODIYOT

**1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna**
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32

**2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna**
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIYASI TASHKILOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38

**3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi**
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

## PEDAGOGIKA

**1. Usanova Zulfiya Bozorovna**
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MISOLIDA).....54

## TARIX

**1. Tuyev Fazliddin Erkinovich**
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSIYALARINING KIRITILISHI: 2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59

**2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi**
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

**3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich**
TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O‘ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A’ZO BO‘LISHI.........................................................68

**4. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna**
QADIMGI MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....................................................73

**5. Muborak Madrimovna Matyakubova**
XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA’SIRI.........78

**6. Xayitov Shodmon Ahmadovich**
MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MA’NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).........................83

**7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna**
QADIMGI XORAZM SUG‘ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO‘YI O‘ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.............................89

**8. Durdona Jamolova**
BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI...............................................93

**9. Egamov Yusufboy Ergashbek o‘g‘li**
O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O‘RNI.........................................................................................................................98

**10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna**
QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O‘ZLASHTIRISH BOSQICHLARI........................................................................................103

**11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov**
YANGI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.................................................................................................................107

**12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich**
XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA’LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.................................................................................................................111

**13. O‘g‘iloy Erbo‘tayeva Suyunovna**
IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....................................................................................................................115

**14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi**
XORAZM VOHASIDA URUG‘CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI..120

**15. Сулайманова Сохиба Баходировна**
СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ......................................................125

**16. Bahridil Ergasheva**
O‘ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.............................................................................................................129

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»
ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz

**Jumaniyazov Bekzod Ochilovich-**
Urganch innovatsiyon universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,
**Sabanova Nilufar Baxodir qizi-**
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

## FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362930

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada fuqarolik jamiyati tushunchasining kelib chiqishi, uning tarixiy shakllanish bosqichlari, qadimgi dunyodan to zamonaviy davrgacha bo'lgan taraqqiyot yo'li tahlil qilinadi. Shuningdek, turli siyosiy va ijtimoiy falsafa vakillarining fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlariga tayanilgan.

**Kalit so'zlar**: fuqarolik jamiyati, tarix, davlat, siyosiy tizim, falsafa, huquqiy madaniyat.

---

**Jumaniyazov Bekzod Ochilovich-**
Urgench Innovation University
Associate Professor of the Department of Social and Humanities,
**Sabanova Nilufar Bakhodir kizi-**
Independent researcher of UrSU

## HISTORICAL STAGES OF CIVIL SOCIETY

**ABSTRACT**

This article analyzes the origin of the concept of civil society, its historical stages of formation, the path of development from the ancient world to the modern world. It also relied on the views of representatives of various political and social philosophies about civil society.

**Keywords:** civil society, history, state, political system, philosophy, legal culture.

---

**Жуманиязов Бекзод Очилович -**
доцент кафедры социально-гуманитарных наук Ургенчского инновационного университета,
**Сабанова Нилуфар Баходир кизи -**
независимый исследователь УрГУ

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется происхождение понятия гражданского общества, его исторические этапы становления, путь развития от древнего мира к современному. Он также

опирался на взгляды представителей различных политических и социальных философий на гражданское общество.
**Ключевые слова:** гражданское общество, история, государство, политическая система, философия, правовая культура.

---

## KIRISH VA DOLZARBLIGI

Fuqarolik jamiyati zamonaviy demokratik jamiyatning ajralmas elementi hisoblanadi. Bu tushuncha ilk bor G'arbiy Yevropa falsafasida vujudga kelgan bo'lsa-da, uning ildizlari qadimgi jamiyat tuzilmalariga borib taqaladi. Hozirgi kunda fuqarolik jamiyati — bu davlatdan nisbatan mustaqil, ammo jamiyatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy institutlar, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, diniy va madaniy birlashmalarning tizimidir.

## METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSh, 1791 y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Frantsiya, 1789 y.)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati – o'z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma'muriy tartibga solishdan xoli teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi.

XX asrda fuqarolik jamiyati g'oyasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etdi. Bunga avvalo totalitar va avtoritar tuzumlarning paydo bo'lishi va ularga qarshi demokratiya uchun kurash olib borish zaruriyati sabab bo'ldi. Plyuralizm nazariyasi keng tarqaldi. Bu nazariyaga binoan, demokratik jamiyatning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: - fuqarolar totuvligiga erishish yo'llarini izlash; - aholining turli guruhlari manfaatlarini hisobga olish; - qarama-qarshiliklarga barham berish va nizolarning oldini olish. Tabaqaviy imtiyozlarning tugatilishi va fuqarolik huquqlarining paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili 16 hisoblanadi. Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, —huquqiy davlat va —fuqarolik jamiyati tushunchalari jamiyat hayotining turli tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir. Ular guruhlar, individlar, jamiyatning umumiy ahamiyatga molik manfaatlari o'raladigan qobiq hisoblanadi va ularni ro'yobga chiqarish usullaridan tashkil topadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o'rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergan. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko'ruvchi vakillik davlatining shakllanishi asos bo'lgan.

Etuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik davlat qurish mumkin emas, chunki ongli erkin fuqarolargina kishilik jamiyatining eng oqilona shakllarini yaratishga qodirdirlar. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ va markazlashgan davlat xohish-irodasi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblansa, davlatning vazifasi parchalanish, tartibsizlik, tanglik, tanazzulga qarshi ish ko'rish, erkin shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Huquqiy davlat – bu shunday bir davlat hokimiyatdirki, u huquq normalariga binoan, va ularning doirasida ish ko'radi, bu normalarni buzish, bekor qilish yoki cheklashga jur'at etmaydi, fuqarolar va ularning birlashmalarining uzviy tabiiy-tarixiy huquqlarini e'tirof etadi. Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analar va ma'naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma'naviyaxloqiy kamol topishini ta'minlay olishi e'tirof etildi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi ilk bor qadimgi yunon faylasuflari, xususan, Aristotel asarlarida uchraydi. U «siyosiy jamoa» (πολις) tushunchasi orqali shahar-davlat va undagi fuqarolarning o'zaro aloqalarini ifodalagan. Aristotel fuqarolik jamiyatini "eng yuqori darajadagi hamkorlik" sifatida ta'riflagan:

"Inson o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy mavjudotdir. Kim siyosiy jamiyatdan tashqarida yashasa, u hayvondir yoki xudodir" [1].

Yevropa Uyg'onish davrida inson huquqlari, shaxsiy erkinlik va davlatning chegaralanishi masalalari dolzarb bo'lib chiqa boshladi. Tomas Gobbs, Jon Lokk va Jan-Jak Russo kabi faylasuflar ijtimoiy shartnoma g'oyasini ilgari surib, fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi shaxs huquqlarini himoya qilishdan iboratligini qayd etganlar.

Jon Lokk, ayniqsa, fuqarolik jamiyatini mulk, erkinlik va qonun ustuvorligini himoya qiluvchi ijtimoiy tuzilma deb qaragan:

"Fuqarolik jamiyati odamlar o'z hayoti, erkinligi va mulkini himoya qilish maqsadida tuzgan birlashmadir" [2]

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan fuqarolik jamiyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: Fuqarolik jamiyati – bu qonun ustuvorligi qiladigan; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalashni ta'minlanadigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan; aholinig keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanidigan mustaqil qva barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir. Yurtimizdagi jamiyatshunos olimlar ham fuqarolik jamiyatini ―...... bu - erkin, demokratik, huquqiy sivilizatsiyalashgan jamiyat bo'lib, unda yakka hokimlik rejimiga, volyuntarizmga, sinfiy adovatga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'ravonlik qilishga o'rin yo'q, Bunday jamiyatda faqat va faqat qonun, axloq, insonparvarlik, adolat ustuvorlik qiladi. Bu jamiyatda ko'p ukladli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, tashshabbuskor tadbirkorlar iqtisodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlari muvozanatga keltirib turiladi yoki ―Fuqarolar o'rtasidagi muaayyan kompromiss, davlat va nodavlat tashkilotlpr o'rtasida konsensus madaniyati vudulga kelganda, shuningdek, dunyoqarashlar plyuralizm, davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro ta'sirga kirishishga layoqatli jamoatchilik institutlari vujudga kelganda shakllanishi mumkin deya tariflaydi.

Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruvining haqiqiy demokratik tabiati to'g'risida aniq tasavvur, fikr va mulohazalar paydo bo'lib, fuqarolar o'z erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu huquq O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanganligidan, fuqarolarning o'z taqdirini o'zi amalda belgilash shart-sharoitlarini ta'minlamoqda. Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi tamoyilga asoslana boshladi. Demokratiya sharoitida xalq davlatning irodasiga qarab emas, aksincha, ongli, faol fuqarosi sifatida ishtirok etadi. Davlat va fuqaro o'rtasida shunday oqilona munosabat qaror topadiki, davlatning fuqaro ustidan hukmronligi, zo'ravonligi, "bo'ysundirish" kabi totalitar davlatga xos belgilari barham topadi. Davlatning demokratik kuchi ham uning fuqaroga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shunda xalqning davlatga nisbatan sadoqati yuqori bo'ladi. Xalqni itoatkorlik asosida tutib turish va siyosat olib borish, oxir oqibatda faqat demokratik jarayonlarga hamda xalqning jamiyat boshqaruvi jarayonlaridan, faol mehnat ruhiyatidan so'ndiribgina qolmasdan, davlatni tobora zaif bir holatga tushib borishga sabab bo'ladi. Bunday davlat, siyosiy rejimning dunyo hamjamiyati oldida ham nufuzi yuqori bo'lmaydi. Fuqarolarga erkinlik, demokratiyani real ta'minlab bermagan davlat tabiatan ma'rifiy bo'la olmaydi. Demokratik jamiyatda esa fuqarolar o'z erkinligi va huquqlaridan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bular: a) avvalo, erkin mehnat faoliyatini tanlash va uni amalga oshirish; b) davlat hokimiyatidan va mustaqil bo'lgan turli institutlarda ishtirok etish; v) ijtimoiy hayot sohalarida erkin faoliyat ko'rsatish; g) jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan xabardor bo'lish, turli fikr va qarashlarga o'z munosabatlarini bildirishda erkin bo'lish bilan birga, muayyan ma'suliyatini ham o'z zimmasiga olish orqali amalga oshib boradi. O'zbekiston mustaqillik tufayli, fuqarolarning so'z, majlislar va vijdon erkinligini ham yangicha asoslarga qo'ydi. Bu daxlsiz huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini milliy qadriyatlar va an'analar, respublikaning milliy tarkibi xususiyatlari, polietnik davlat talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshira boshladi. Bu har bir insonga, 104 uning millati, dini, jinsi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, fuqaro sifatida ham huquqlarini teng amalga oshirish uchun demokratik asoslar yaratib berildi. Bu Respublikada yashayotgan har bir fuqaroning mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida erkin faoliyatini amalda ta'minlab bermoqda.Fuqarolik jamiyatining taraqqiyot bosqichlari

1. Qadimgi davrda: Fuqarolik jamiyatining ibtidoiy shakllari qadimgi yunon polislarida va Rim respublikasida mavjud boʻlgan. Oʻsha davrda fuqarolik faoliyati siyosiy ishtirok, majlislar, saylovlar va sud tizimi orqali amalga oshirilgan.
2. Oʻrta asrlar: Yevropada cherkov va feodal tuzum ustuvor boʻlgan. Fuqarolik jamiyatining shakllanishiga shaharlar, gildiyalar va diniy ordenlar sababchi boʻlgan. Bu jarayon Markaziy Osiyoda esa masjidlar, madrasa, karvonsaroylar, mahalla tizimi kabi ijtimoiy institutlar orqali ifodalangan.
3. Yangi davr: XVII–XVIII asrlarda burjua inqiloblari fuqarolik jamiyatining rivojlanishida muhim bosqich boʻldi. AQSh mustaqillik deklaratsiyasi (1776) va Fransiya Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi (1789) fuqarolik jamiyati asoslarini huquqiy jihatdan mustahkamladi.
4. Zamonaviy bosqich: XX–XXI asrlarda fuqarolik jamiyati institutlari demokratik boshqaruvning asosiy tayanchi sifatida shakllandi. Bugungi kunda u ijtimoiy adolat, erkin axborot, inson huquqlari va davlat ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlovchi kuchli omil hisoblanadi. [3]

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi mustaqillik davridan boshlab yangi bosqichga koʻtarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Yangi Oʻzbekiston" konsepsiyasi doirasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish strategik maqsadlarga aylantirildi. Xususan, "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi", "Ijtimoiy sheriklik toʻgʻrisida"gi qonunlar, Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi faoliyati fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. [4]

## XULOSA

Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri boʻlib, uning shakllanishi tarixiy va ijtimoiy sharoitlarga bogʻliq boʻlgan. Bugungi demokratik jamiyatlar faol fuqarolik institutlari orqali boshqaruvning ochiqligi, shaffofligi va adolatli jamiyat qurilishiga erishmoqdalar. Oʻzbekistonda ham fuqarolik jamiyatining shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshmoqda va bu yoʻnalishda davlat va jamoatchilik oʻrtasida ijtimoiy hamkorlik tobora kuchayib bormoqda.

**Iqtiboslar/References/Сноски**

1. Aristotel. Siyosat. Yunon falsafasi antologiyasi. Toshkent: "Fan", 1996.
2. Locke, J. Second Treatise of Government. London, 1689.
3. Hobbes, T. Leviathan. London, 1651.
4. Rousseau, J.-J. The Social Contract. Geneva, 1762.
5. Bobojonov, S. "Fuqarolik jamiyati nazariyasining tarixiy taraqqiyoti". – Falsafa va huquq, 2021, №3.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – 2020 yil.
7. "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi", Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2019.

ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

# ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 3, НОМЕР 4

# JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000